

Oriental Journal of Education



MILITARY CULTURE AND LEVELS OF MILITARY CULTURAL COMPETENCE

Siyovush Qaxxarov*Independent Researcher**Namangan State University*qaxxarovsiyovush_1994@gmail.com*Namangan, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: military culture, skill, qualification and mastery, competence, competency, stage of military culture, levels of military culture.

Received: 27.09.25**Accepted:** 28.09.25**Published:** 29.09.25

Abstract: This article covers the concept of military culture and its essence, as well as the stages of military culture competencies formed in the individual. Through a pedagogical analysis of the reproductive, productive, and high levels of military culture, the mechanisms for the formation of professional skills, discipline, and the spirit of patriotism in military personnel are shown. Along with the theoretical foundations of the development of military culture, pedagogical approaches of practical importance are also revealed.

HARBIY MADANIYAT VA UNING MADANIYAT KOMPETENSIYASINING DARAJALARI

Siyovush Qaxxarov*NamDU mustaqil tadqiqotchi*qaxxarovsiyovush_1994@gmail.com*Namangan, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: harbiy madaniyat, koʻnikma, malaka va mahorat, kompetensiya, kompetentlik, harbiy madaniyat bosqichi, harbiy madaniyat darajalari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy madaniyat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati hamda shaxsda shakllanadigan harbiy madaniyat kompetensiyalarining bosqichlari yoritilgan.

Harbiy madaniyatning reproduktiv, produktiv va yuqori darajalarini pedagogik nuqtai-nazardan tahlil qilish orqali harbiy xizmatchilarda kasbiy mahorat, intizom va vatanparvarlik ruhini shakllantirish mexanizmlari koʻrsatib berilgan. Shuningdek, harbiy madaniyatni rivojlantirishning nazariy

asoslari bilan birga, amaliy ahamiyat kasb etuvchi pedagogik yondashuvlar ochib berilgan.

ВОЕННАЯ КУЛЬТУРА И УРОВНИ ВОЕННОЙ КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Сиявуш Каххаров

Независимый исследователь

Наманганский государственный университет

qaxharovsiyovush_1994@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: военная культура, навык, квалификация и мастерство, компетенция, компетентность, этап военной культуры, уровни военной культуры.

Аннотация: В данной статье освещается понятие военной культуры и ее сущность, а также этапы формирования компетенций военной культуры у личности. Путем педагогического анализа репродуктивного, продуктивного и высокого уровней военной культуры показаны механизмы формирования профессионального мастерства, дисциплины и духа патриотизма у военнослужащих. Также наряду с теоретическими основами развития военной культуры раскрыты педагогические подходы, имеющие практическое значение.

Kirish. Har qanday sohani yangi sifat bosqichiga ko'tarish va yanada takomillashtirishda o'sib kelayotgan yosh avlodning aqliy, jismoniy, ilmiy salohiyati va tanlagan sohalariga oid kompetentligini zamonaviy talablarga mos holda shakllantirish va rivojlantirish eng muhim masala hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassisning sohaga oid yuqori darajadagi kompetensiyalari jamiyatning jadal o'zgaruvchan sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashish jarayonining kafolati sifatida amaliyotda samarali ijtimoiy va kasbiy faoliyatni amalga oshirish istiqbollari ta'minlaydi.

“O'zbekiston - 2030 Strategiyasi”ning 1-yo'nalishida – sifatli ta'lim-tarbiya masalasi, ta'lim tizimini izchil va manzilli isloh qilish orqali ilm-fanni rivojlantirishning strategik vazifalari [1:230] belgilab berilgan bo'lib, ta'lim sifatini oshirish zarurati siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muhitdagi o'zgarishlar jarayonlarining tezlashishi, yangi global muammolar va axloqiy ziddiyatlarning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq ekanligi ta'kidlangan.

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Harbiy madaniyat va uning kompetensiya darajalari masalasi bo'yicha ilmiy adabiyotlar ko'proq falsafa, pedagogika va sotsiologiya yo'nalishida tadqiq qilingan. Jahon tadqiqotchilari (K. Klauzevits, S. Xantington) harbiy madaniyatni davlat xavfsizligi va milliy mafkura bilan bog'laydi. O'zbekistonlik B.Xodjayev, N.Turdiyevlar yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi, ijtimoiy intizom va ma'naviy barkamollikni shakllantirish vositasi sifatida o'rganmoqdalar. Adabiyotlarda harbiy madaniyat kompetensiyasining darajalari bilim, ko'nikma va qadriyatlar majmui sifatida baholanadi. Shu bilan birga, zamonaviy global xavfsizlik muammolari

fonida mazkur masala yanada dolzarb bo'lib, uni milliy va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish orqali chuqur tadqiq etish zaruriyati ta'kidlanadi.

Tahlil va natijalar. Harbiy madaniyat har bir davlatning mustaqilligi, suverenitetini, xavfsizligini himoya qilish uchun yaratilgan maxsus ijtimoiy institutlar majmui sifatida, ma'lum bir xalq madaniyati namunasini ifoda etar ekan, demak, o'z navbatida ularning rivojlanishiga ham jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Madaniyat va jamiyatning harbiy madaniyati nisbatan mustaqil tizimlar bo'lsada, ular o'zaro ta'sir kuchiga ega bo'lib, bir-bir bilan aloqadorlikda faoliyat yuritadi. Ammo, ularning har birini aynan o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari ham mavjud bo'lib, masalan, ularda mavjud bo'lgan semiotik va ramziy belgilarda, yashirin va ochiq shakllarida, o'zigagini taalluqli bo'lgan qadriyatlarida, mehnat jarayonida munosabatlarning yuqori rasmiylashtirilganligida, qat'iy va aniq tartib-qoidalariga rioya etilishida ko'rish mumkin. Agar harbiy madaniyat turli ramzlar, belgilar va semiotik tizimlar orqali ifodalanishi va bu belgilar harbiy an'analar, intizom, shaxsiy va jamoaviy identifikatsiya hamda harbiy g'oyalarni o'zida namoyon qilishiga e'tibor qaratsak, yuqorida ta'kidlaganimizdek, madaniyat va jamiyatning harbiy madaniyati bir-bir bilan o'zaro aloqadorlikda faoliyat yuritilgan-da, ammo, aynan o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bilan nisbatan mustaqil tizimlar ekanligini guvohi bo'lamiz. Masalan, shaxsiy va guruhviy identifikatsiya – askarlar, ofitserlar va harbiy qismlarning qaysi tuzilmaga mansubligini anglatadi, intizom va ierarxiyani belgilash – harbiy lavozim va unvonlarni ramzlar orqali ko'rsatib beradi. Shuningdek, tarixiy va madaniy merosni aks ettirish – milliy va tarixiy an'analarni saqlashga xizmat qiladi.

Harbiy ramzlar (forma, rang, emblema, nishon, orden, medal, bayroq, gerb va h.z) va ularning ma'nolari ham o'ziga xos mazmunga, shaklga va albatta maxsus vazifaga ega bo'lib, harbiy sohaga hos bo'lgan bir qator ma'nolarni anglatadi. Masalan, harbiy liboslar (forma) harbiy soha vakilining qaysi davlat, qism yoki lavozimga mansubligini bildirsa, maxsus forma sifatida kamuflyaj libos qarshi tomonni chalg'itish yohud dushman tomonidan aniqlanishni qiyinlashtirish vositasi sifatida qo'llaniladi. Huddi shuningdek, harbiy soha vakillari formalari ranglari ham muayyan ma'noni anglatadi. Masalan, ko'k rang tinchlikparvar kuchlar bilan bog'liq bo'lsa, qizil rang psixologik yondashuvdan farqli o'laroq, ko'pincha jasorat va qahramonlik ramzi hisoblanadi. Harbiy ramzlar tarkibiga qo'shin turlari va boshqa tuzilmalar uchun alohida emblemlar, harbiy xizmatchilarning xizmatlari va qahramonliklarini taqdirlash uchun beriladigan orden va medallar, muayyan g'oya va an'analarni ifoda etuvchi harbiy bo'linmalar va davlat armiyalarining tarixiy qadriyatlarini aks ettiruvchi bayroqlarini kiritish mumkin. Albatta, harbiy ramzlar jamiyatda vatanparvarlik va millatni himoya qilishga oid qadriyatlarni mustahkamlashga, harbiy soha vakillari va fuqarolarga ma'naviy kuch berishga, ularning jamoaviy ruhini mustahkamlashga xizmat qiladi. Harbiy madaniyatda semiotik va ramziy belgilar nafaqat tashqi ko'rinishni, balki ma'naviy va strategik

ahamiyatga ega mazmunni ham aks ettiradi. Ular harbiy an'analar, intizom va hurmat belgisi bo'lib, har bir jamiyatning harbiy madaniyati va salohiyatining indikatorlari bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy madaniyat jamiyat, davlat va shaxs manfaatlarini himoya qilishning alohida turi, qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar, me'yorlar majmui sifatida o'zining tarkibiy qismlari, rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aks ettiradi.

Harbiy madaniyatni shakllantiruvchi komponentlar mujassamlashib muayyan kompetentlikni tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan umumiy madaniyatning bir qismi bo'lgan harbiy madaniyat kompetensiyalari yoshlarning jismoniy va ma'naviy tayyorgarligini, tashkilotchilik va mas'uliyatni, shaxsiy va jamoaviy faoliyat ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Harbiy madaniyat kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish bugungi kunda murakkab pedagogik vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu jarayon quyidagi natijalarga erishish imkoniyatlarini nazarda tutiladi.

1. Yoshlarda harbiy madaniyatga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish;
2. Umummadaniyat tarkibi sifatida harbiy madaniyatga oid bilimlarni taqdim etish jarayonini innovatsion yondashuvlarga tayangan holda amaga oshirish;
3. Yoshlarni harbiy madaniyat kompetensiyalarini egallashlarini jadallashtirish maqsadida harbiy madaniyat kompetensiyasining rivojlantirish bosqichlarini uzviy ketma-ketlikda izchil amalga oshirish, ya'ni, reproduktiv darajasidan mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni bosqichma bosqich produktiv darajaga olib chiqish va alal oqibatda umumjamiyat madaniyatining ijobiy ko'rsatkichi sifatida jamiyatda harbiy madaniyat kompetensiyasining yuqori darajasiga erishish.

Ma'lumki, kompetensiya (lot.: *competentia* – tegishli, oid, aloqador, mos, muvofiq kelish) ma'lum sohaga oid bilim, malaka, ko'nikma va tajribalarni qo'llay olish qobiliyatini anglatib hozirda “kompetensiya”, “kompetentlilik” tushunchalariga oid ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. “Kompetentlik” atamasini birinchilardan bo'lib amerikalik sotsiolog 1959-yilda R.Uayt ilmiy sohada qo'llab, uni “shaxsning atrof-muhit bilan samarali o'zaro ta'siri sifatida” [2:297-333], ifodalagan bo'lsa, 1965-yilda N.Xomskiy til nazariyasiga “kompetentlik” tushunchasini qo'llab, kompetentlikni shaxsning so'zlash, tinglash malakasi va tajribasi [3:122] bilan bog'lagan. R.Meyers “kompetentlilik” tushunchasi deganda, “nafaqat ma'lum faoliyatga oid kategoriyalarga mos kelishlikni, balki shakllangan ko'nikmalarni ishlab chiqarish jarayonida namoyon qilishni” [4:15], ingliz olimi D.Raven o'z asarlarida kompetentlik atamasini “butunning tarkibiy qismlari, ular nisbatan bir-biridan mustaqil, kognitiv va hissiy sohaga tegishli komponentlardan iborat bo'lgan hodisa yohud ijtimoiy ahamiyatga ega sohadagi hayotiy muvaffaqiyat” [5:78] sifatida baholagan. Mahalliy olimlarimizdan N.Muslimov va boshqalar “...faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka va iqtidorni namoyon eta olish” qobiliyati [6:120] sifatida, M.T.Ahmedova va boshqa bir guruh tadqiqotchi olimlar esa, “shaxsning biror bir sohadan

habardorlik, shu sohani bilish darajasi” [7:84] deya ta’riflashgan. Mazkur ta’riflar tarkibi vaqt va makon voqeligida “tayyorlik”, “mas’uliyat”, “qat’iyatlik”, qobiliyat, “ishonch” har bir mutaxassis uchun zarur bo’lgan bir qator boshqa tarkibiy qismlar, shaxsiy rivojlanishi, intellektual salohiyati, emotsional iroda va shaxsiy sifatlari, aniq maqsadga qaratilgan javobgarlik hissi, insonparvarlik, tolerantlik, fidoiylilik, kasbiy mahorat, professional faoliyatning ma’lum turlari bilan bog’liq sifatlari kabi yangi tushunchalar bilan boyib borgan.

Shuningdek, uning mazmunida bilimlar majmuining amalda qo’llanilishi; shaxsning uquvi, xislati va fazilatlari; amaliy faoliyatga tayyorgarlik o’lchovi; muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo’lga kiritish layoqati; amaliy faoliyatga tayyorgarlik o’lchovi; muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo’lga kiritish layoqati; shaxsning professional faoliyatini ta’minlovchi bilim, ko’nikma, malakalar yaxlitligi; faollashgan (amaliyotga tadbiiq etilgan) o’quv, bilim, tajriba majmui; shaxsning maqsadli yo’naltirilgan emotsional iroda kuchi” [8:160] ham o’z ifodasini topgan.

Kompetensiyalarni shartli ravishda ijtimoiy, madaniyatlararo, lingvistik, informatsion, o’z-o’zini rivojlantirishga doir va yana “siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy”, “ijtimoiy-kommunikativ”, “madaniy turfaxillik”, “axborot-instrumental”, “individual-shaxsiy” [9] kabi tarkiblarda ham tadqiq etishgan. Pedagog olim B.Xodjayev kompetensiyalarni: “yaxlit umumiy o’rta ta’lim mazmuniga taalluqli tayanch kompetensiyalar; real voqelikni aks ettirishiga ko’ra ma’lum bir fanlar guruhiga tegishli umumiy kompetensiyalar; bir fan doirasini qamrab oladigan va shakllantiriladigan xususiy kompetensiyalar”ni [10] uchta darajasini ajratib ko’rsatgan.

Harbiy madaniyat kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik asoslari turli sohalardagi tajribalar va nazariy yondashuvlarga asoslanadi. Bu maqsadga erishish uchun, pedagogika va tarbiya sohasida bir qator asosiy prinsiplar, metodlar va usullar mavjud. Manba va lug’atlarda harbiy madaniyat, avvalo, askar va harbiy xodimlar uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma, malaka, mahorat, texnika va kasbiy fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutsa-da, aslida bu nafaqat harbiylarda balki, har bir fuqaroda, ayniqsa, yoshlarda shakllantirishi lozim bo’lgan umumkompetensiyalarning muhim bir qismi sifatida bilim, ko’nikma, malaka, mustaqil pozitsiyaga asoslangan kompetensiyalar majmui sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy madaniyat kompetensiyalari tarkibiy qismida albatta qobiliyat va mahorat muhim o’rin egallaydi. Harbiy tayyorgarlik sub’ektlarining shaxsiy-faoliyat yondashuviga mos ravishda qobiliyat va mahorat bevosita inson faoliyati tarkibida alohida harakatni belgilaydi. Agar faoliyatning o’zi o’zining maqsadlilik, ob’ektivligi va faoliyat sub’ektini o’zgartirish istagi bilan inson faoliyatining o’ziga xos turi sifatida harakat qilsa, unda bu faoliyatning mazmuni ongli, qisman ongli va ongsiz harakatlar, operatsiyalar yoki harakatlar majmui sifatida ifodalanishi mumkin.

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida yaxlit harbiy pedagogik jarayon nafaqat bo'lajak harbiy soha xodimlarini, balki yosh avlodni bo'lajak harbiy madaniy faoliyatga tayyorlash, tarbiyalash, rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shaxsga yo'naltirilgan va malakaga asoslangan harbiy madaniyatning psixologik-pedagogik asoslarini uzluksizligini ta'minlashni talab qiladi. Ta'kidlash joizki, u vazifalari va mazmuni jihatidan umumiy pedagogik faoliyatdan biroz ya'ni rejalashtirilgan natijalariga erishish va faoliyatning dinamik xususiyatlarini saqlab qolishga qaratilgan boshqaruv sifatida pozitsiyalar, kasbiy mahorat, salohiyat darajasi, faoliyati, jihati bo'yicha farqlanadi. Ko'nikmalar asosan gnostik, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy va maxsusga, qobiliyatlar esa, bilimlarni yangi pedagogik vaziyatga o'tkazish, har qanday pedagogik vaziyatda echim topish, yangi bilimlarni yaratish, yuzaga kelgan pedagogik muammo bilan ishlash, o'quv materialini bilan ishlash, psixologik-pedagogik bilimlardan foydalanish, kommunikativ vazifalarni, pedagogik muloqotni oqilona amalga oshirish, kasbiy pozitsiyani saqlash, o'z kasbiy rivojlanishini tashkil etish, o'quv faoliyati natijalarini baholash va nazorat qilish kabilardir.

Harbiy madaniyat kompetensiyalari insonni to'g'rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezigulikka va qo'yingki, yuksak axloqlikka yo'llaydi.

Harbiy madaniyat kompetensiyasining reproduktiv darajasi — bu harbiy tayyorgarlikning boshlang'ich bosqichi bo'lib, u asosiy bilimlarni o'zlashtirish, ularni takrorlash va standart holatlarda to'g'ri qo'llash bilan xarakterlanadi. Boshlang'ich reproduktiv darajaning asosiy xususiyatlariga bilimlarning yodda saqlanishi va takrorlanishi; ko'rsatma asosida harakat qilish; ularni amaliyotda ko'r-ko'rona qo'llash, asosan itoat va ijro ya'ni tashabbusiz bo'y sunish ustivorligi va albatta tarbiyaviy samaradorlik kiradi. Ammo mazkur bosqich keyingi bosqichlarga ya'ni, konstruktiv, kreativ darajalarga o'tish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Harbiy madaniyat kompetensiyasining produktiv darajasi bu harbiy xizmatchining mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil tahlil qilish, ular asosida yangicha yondashuvlar ishlab chiqish hamda noan'anaviy vaziyatlarda ularni moslashtirib qo'llash qobiliyatini anglatadi. Bu daraja reproduktiv darajaga nisbatan yuqoriroq bo'lib, harbiy xizmatchining mustaqilligi, tashabbuskorligi va ijodiy fikrlashini ko'rsatadi. Uning asosiy xususiyatlariga bilimlarning ijodiy qo'llanilishi, mustaqil tahlil va baholash qobiliyati, noan'anaviy vaziyatlarda qaror qabul qilish va tashabbuskorlik, liderlik qobiliyatining namoyon bo'lishi kiradi. Bir so'z bilan aytganda produktiv darajada harbiy xizmatchi madaniy va axloqiy kompetensiyalarini mustaqil va samarali shaklda namoyon eta oladi, u nafaqat o'rgangan bilimlarni qo'llaydi, balki ularni ijodiy tarzda rivojlantiradi, vaziyatga moslashtiradi va boshqalarga o'rnak bo'ladi.

Harbiy madaniyat kompetensiyasining yuqori darajasi harbiy xizmatchining harbiy madaniyatga oid bilim, ko'nikma va qadriyatlarni chuqur anglab, ularni doimiy ravishda takomillashtirishi, strategik darajada targ'ib qilishi va boshqalarga etkazishda faol liderlik qilishi

bilan tavsiflanadi. Bu daraja kreativ (ijodiy) yoki transformativ daraja deb ham ataladi va harbiy shaxsning yuksak axloqiy ong, madaniy mas'uliyat hamda intellektual etuklik darajasini ifodalaydi. Mazkur darajaning asosiy xususiyatlari tarkibida keng dunyoqarash va chuqur tahlil; yangilik yaratish va ilg'or tashabbuslar; liderlik va ilhomlantirish qobiliyati; o'z-o'zini rivojlantirish va boshqalarni rivojlantirish; strategik va tizimli fikrlash kabilar namoyon bo'ladi. Mazkur darajada shaxs harbiy madaniyatni nafaqat mukammal biladi, qo'llaydi, balki uni rivojlantiruvchi, targ'ib qiluvchi va boshqalarga etkazuvchi sohaning axloqiy-ma'naviy poydevorini yaratadigan lider shaxs sifatida gavdalanadi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, harbiy madaniyat – bu nafaqat jangovar san'at va strategiya, balki shaxsning ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi kompleks hodisadir. U Vatanparvarlik, sadoqat, intizom va mas'uliyat kabi qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Shaxsda harbiy madaniyatning shakllanishi nafaqat harbiy xizmatchilar uchun, balki keng jamiyatning ham ma'naviy barkamolligida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u insonning ijtimoiy faoliyatida yuksak intizomiylik, mehnatsevarlik va vatan oldidagi mas'uliyatni kuchaytiradi. Shu bois harbiy madaniyatni o'rganish – jamiyat taraqqiyoti, yoshlarning milliy ongini mustahkamlash hamda barqaror tinchlikni saqlashning muhim sharti hisoblanadi.

Ikkinchidan, harbiy madaniyat kompetensiyasi shaxsning bilim, ko'nikma va qadriyatlari asosida shakllanadi va uning darajalari bosqichma-bosqich rivojlanadi. Birinchi daraja – elementar bilimlarga asoslangan tasavvurlarni bildirs, yuqori darajalar – strategik tafakkur, axloqiy qarashlar va amaliy tajribani mujassamlashtiradi. Harbiy kompetensiyaning yetukligi insonning nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy hayotda ham o'zini tutishi, muammolarga tizimli yondashishi va Vatan manfaatini birlamchi qadriyat sifatida anglashida namoyon bo'ladi. Shu tariqa harbiy madaniyat kompetensiyasini rivojlantirish inson kapitalini yuksaltirishning muhim falsafiy va ijtimoiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, harbiy madaniyat kompetensiyasining darajalarini belgilashda shaxsning intellektual salohiyati, axloqiy qarashlari va ijtimoiy faoliyatini baholash zarur. Pastki darajalarda shaxs faqat buyruqni bajarish ko'nikmasiga ega bo'lsa, o'rta darajalarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarda yo'l topa olish qobiliyati shakllanadi. Eng yuqori darajada esa strategik tafakkur, rahbarlik fazilatlar va keng dunyoqarash mujassam bo'ladi. Bu jarayon shaxsni ko'p qirrali rivojlantirish bilan birga, jamiyatdagi xavfsizlik, barqarorlik va milliy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Demak, harbiy madaniyat darajalari ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotda markaziy o'rin tutadi.

To'rtinchidan, harbiy madaniyatning shakllanishi milliy an'analar, tarixiy xotira va zamonaviy bilimlar uyg'unligida rivojlanadi. Kompetensiya darajalari esa bu jarayonni ilmiy-nazariy asoslash va amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Masalan, birinchi daraja – milliy urf-

odatlar va tarbiyaviy qadriyatlarga asoslanadi, keyingi bosqichlarda zamonaviy texnologiyalar, harbiy innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik tajribalari qo‘shiladi. Natijada shaxsda keng qamrovli harbiy dunyoqarash, kuchli vatanparvarlik va zamonaviy xavfsizlik talablari uyg‘unlashadi. Bu esa O‘zbekiston sharoitida yoshlarni ma’naviy barkamollikka, ijtimoiy mas’uliyatga va davlat manfaatini himoya qilishga tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, harbiy madaniyat va uning kompetensiya darajalari bugungi globallashuv sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Harbiy xizmatchilar nafaqat milliy xavfsizlikni ta’minlovchi kuch, balki madaniyat tashuvchilari sifatida ham maydonga chiqishlari zarur. Harbiy madaniyatning yuqori darajalari shaxsni xalqaro standartlarga moslashishga, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishga va milliy manfaatlarni xalqaro miqyosda himoya qilishga tayyorlaydi. Shu bilan birga, bu kompetensiyalar tinchliksevar tashabbuslarni rivojlantirishga, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Demak, harbiy madaniyat – bu nafaqat mudofaa sohasi, balki jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy yuksalishning muhim omilidir.

“Harbiy madaniyat va harbiy madaniyat kompetensiyasining darajalari” mavzusini o‘rganish bo‘yicha quyida amaliy tavsiyalarni keltiramiz:

-Harbiy madaniyatni o‘rganishda nazariy yondashuvni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish lozim. Ma’ruza, seminar va treninglarda nazariy tushunchalar berilib, ular harbiy mashqlar, simulyatsiya va rolli o‘yinlar orqali mustahkamlanishi kerak. Bu yondashuv talabalarda nafaqat bilim, balki real vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

-Kompetensiya darajalarini bosqichma-bosqich baholash tizimini joriy etish zarur. Maxsus testlar, kuzatuvlar va amaliy topshiriqlar orqali shaxsning bilim darajasi, intizomiy xatti-harakati va strategik fikrlash ko‘nikmalari baholanib, keyingi bosqichlarga tayyorlik aniqlanadi.

-Harbiy madaniyatni rivojlantirishda milliy qadriyatlar, tarixiy tajribalar va zamonaviy global standartlarni uyg‘unlashtirish lozim. Shu maqsadda darslarda xalq qahramonlari, buyuk sarkardalar faoliyati o‘rganilishi, zamonaviy harbiy texnologiyalar va xalqaro tajribalar bilan boyitilishi kerak.

-Harbiy madaniyat kompetensiyasini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanish maqsadga muvofiq. Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, multimedia materiallari yordamida o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin.

-Harbiy madaniyat darajalarini shakllantirishda jamoaviy faoliyatni rivojlantirish muhim. Talabalar yoki kursantlar o‘rtasida guruh loyihalari, musobaqalar va ijtimoiy aksiyalar tashkil etilishi ularning mas’uliyat, intizom va hamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 416 bet.

2. White R.W. Motivation reconsidered: the concept of competence // Psychological Review. 1959. № 66. P. 297–333.
3. Хомский Н. Язык и мышление. М., 1972. 122 с.
4. Development and implementing local educational standards / Ed. by Meyers R. ERIC. – Clearing House on Assessment and Evaluation, 1998. – P. 15.
5. Dj.Raven Assessing Emotional Intelligence Competencies. Washigton, 2004. 168 p.
6. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015. – 120 b.
7. Axmedova M. T. Pedagogik kompetentlik - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016. - 84 bet.
8. Turdiyev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. – T.: T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 2015.- 160 b.
9. С.А.Хазова., Компетентность конкурентоспособного специалиста по физической культуре и спорту. - М.: Изд-во «Академия Естествознания», 2010.
10. Xodjayev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – Toshkent, 2016. – 314 b.